**O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI**

# Bug‘doy va qattiq bug‘doy uchun standart

**(CODEX STAN 199:1995, IDT)**

**Rasmiy nashr**

**O‘zbekiston standartlar instituti**

**Toshkent**

STANDARTLAR INSTITUTI #QMG7Y5YHE5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

**So‘zboshi**

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 25-fevraldagi 6/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart CODEX STAN 199:1995 “Standard for wheat and durum wheat” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

*Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.*

*Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.*

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #QMG7Y5YHE5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

2025-yil 10-aprel kuni 3.2.2-bo‘lim “Qorakuya”da qattiq bug‘doy tarkibidagi Claviceps purpurea zamburug‘i sklerotsiyalarining maksimal ruxsat etilgan miqdori massa ulushi bo‘yicha 0,5 % dan 0,05 % ga tuzatildi.

STANDARTLAR INSTITUTI #QMG7Y5YHE5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI**

# Bug‘doy va qattiq bug‘doy uchun standart

# Стандарт на пшеницу и пшеницу твердую

# Standard for wheat and durum wheat

Amalga kiritish sanasi 25.03.2026-yil.

## 1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu standart 2-bo‘limda keltirilgan tavsifga muvofiq, qayta ishlangandan so‘ng oziq-ovqat sifatida iste’mol qilish uchun mo‘ljallangan bug‘doy doni va qattiq bug‘doy doniga tadbiq etiladi.

Mazkur standart mitti bug‘doyga (Triticum compactum Host.), qattiq qizil donli bug‘doyga, qattiq bug‘doydan olinadigan manniy yormasiga, shuningdek bug‘doy va qattiq bug‘doydan olingan mahsulotlarga tadbiq etilmaydi.

## 2 Tavsif

2.1 Bug‘doy – Triticum aestivum L. turiga mansub o‘simliklarning doni.

2.2 Qattiq bug‘doy – Triticum durum Desf. turiga mansub o‘simliklarning doni.

## 3 Tarkibi va sifati. Asosiy ko‘rsatkichlar

3.1 Umumiy sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari

3.1.1 Bug‘doy va qattiq bug‘doy qayta ishlangandan so‘ng oziq-ovqat sifatida iste’mol qilish uchun xavfsiz va yaroqli bo‘lishi kerak.

3.1.2 Bug‘doy va qattiq bug‘doyda begona hid va ta’m bo‘lmasligi, shuningdek tirik hasharotlar va kanalar mavjud bo‘lmasligi lozim.

3.2 Maxsus sifat ko‘rsatkichlari

3.2.1 Namlik

Ruxsat etilgan maksimal daraja:

Bug‘doy — 14,5 % (massa ulushi bo‘yicha)

Qattiq bug‘doy — 14,5 % (massa ulushi bo‘yicha)

Ba’zi hududlarga jo‘natishda iqlim sharoiti, tashish davomiyligi va saqlash sharoitlarini hisobga olgan holda namlik bo‘yicha yanada past chegaraviy qiymatlar belgilanishi talab qilinishi mumkin.

3.2.2 Qorakuya

Zamburug‘ sklerotsiyasi

Ruxsat etilgan maksimal daraja:

STANDARTLAR INSTITUTI #QMG7YEXHE5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Bug‘doy — 0,05 % (massa ulushi bo‘yicha)

Qattiq bug‘doy — 0,05 % (massa ulushi bo‘yicha)

3.2.3 Begona aralashmalar — bug‘doy va qattiq bug‘doydan, singan donlardan, boshqa donli ekinlar urug‘laridan va begona o‘tlardan tashqari barcha organik va noorganik moddalar.

3.2.3.1 Zaharli yoki zararli urug‘lar

Mazkur standart talablariga javob beradigan mahsulotlar inson salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan miqdorda quyidagi zaharli yoki zararli urug‘larni o‘z ichiga olmasligi kerak:

— krotalyariya (Crotalaria spp.), oddiy (Agrostemma githago L.), kanakunjut (Ricinus communis L.), oddiy durman (Datura spp.) va salomatlik uchun zararli deb umumiy tan olingan boshqa o‘simliklar urug‘lari.

3.2.3.2 Begona aralashmalari

Organik kelib chiqishga ega aralashmalar (shu jumladan o‘lik hasharotlar) — massa ulushi bo‘yicha 0,1 % dan oshmasligi kerak.

3.2.3.3 Boshqa organik aralashmalar — boshqa oziq-ovqat donlaridan tashqari organik komponentlar (begona urug‘lar, poyalar va boshqalar):

Ruxsat etilgan maksimal daraja:

Bug‘doy — 1,5 % (massa ulushi bo‘yicha)

Qattiq bug‘doy — 1,5 % (massa ulushi bo‘yicha)

3.2.3.4 Noorganik aralashmalar — har qanday noorganik komponentlar (toshlar, chang va boshqalar):

Ruxsat etilgan maksimal daraja:

Bug‘doy — 0,05 % (massa ulushi bo‘yicha)

Qattiq bug‘doy — 0,05 % (massa ulushi bo‘yicha)

## 4 Ifloslantiruvchi moddalar

4.1 Og‘ir metallar

Ushbu standart qoidalari tadbiq etiladigan mahsulotlar inson salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan miqdorda og‘ir metallarni o‘z ichiga olmasligi kerak.

4.2 Pestitsidlarning qoldiq miqdori

Bug‘doy va qattiq bug‘doy mazkur mahsulot uchun “Kodeks Alimentarius” Komissiyasi tomonidan belgilangan pestitsid qoldiqlarining maksimal ruxsat etilgan darajalari talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

## 5 Sanitariya-gigiyena talablari

5.1 Ushbu standart qoidalari tadbiq etiladigan mahsulotni tayyorlash va keyingi muomalasi “Oziq-ovqat gigiyenasining umumiy prinsiplari” (CXC 1-1969) ning tegishli bo‘limlari hamda “Kodeks Alimentarius” Komissiyasi tomonidan mazkur mahsulotga nisbatan tavsiya etilgan boshqa norma va qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

5.2 Tozalangan mahsulot, ishlab chiqarishning ilg‘or (yaxshi) amaliyoti qoidalariga rioya qilingan holda imkon qadar, nomaqbul aralashmalarni o‘z ichiga olmasligi kerak.

5.3 Tegishli namuna olish va tahlil usullari qo‘llanilgan holda o‘tkazilgan tekshiruvlarda mahsulot, tozalash va saralashdan so‘ng hamda keyingi qayta ishlashdan oldin:

STANDARTLARNING TO‘LIQ MATNINI ELEKTRON SHAKLDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QAYTA QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

— inson salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan miqdorda mikroorganizmlarni o‘z ichiga olmasligi;

— inson salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan parazitlarni o‘z ichiga olmasligi; va

— mikroorganizmlar, jumladan zamburug‘lar hayot faoliyati natijasida hosil bo‘lgan, inson salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan miqdordagi har qanday moddalarni o‘z ichiga olmasligi kerak.

## 6 Qadoqlash

6.1 Bug‘doy va qattiq bug‘doy mahsulotning sanitariya-gigiyenik, oziqlantiruvchi, texnologik va organoleptik xususiyatlarini saqlanishini ta’minlaydigan idishlarga qadoqlanishi kerak.

6.2 Idishlar, jumladan qadoqlash materiallari, belgilangan maqsad uchun xavfsiz va yaroqli bo‘lgan tegishli materiallardan tayyorlangan bo‘lishi lozim. Ular mahsulotga toksik moddalarni o‘tkazmasligi va unga begona hid yoki ta’m bermasligi kerak.

6.3 Mahsulot qoplarga qadoqlanganda, bunday qoplar toza, mustahkam hamda zich tikilgan yoki kavsharlangan bo‘lishi kerak.

## 7 Tamg‘alash

“Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini tamg‘alash bo‘yicha umumiy standart” (CXS 1-1985) qoidalariga qo‘shimcha ravishda quyidagi maxsus qoidalar qo‘llaniladi:

7.1 Mahsulot nomi

Yorliqda mahsulot nomi tegishli hollarda “bug‘doy” yoki “qattiq bug‘doy” tarzida ko‘rsatiladi.

7.2 Transport idishining tamg‘alanishi

Axborot yozuvlari bevosita idishning o‘zida yoki ilova qilinadigan hujjatlarda ko‘rsatiladi; bunda idishda majburiy ravishda mahsulot nomi, to‘p raqami, shuningdek ishlab chiqaruvchi yoki qadoqlovchining nomi va manzili ko‘rsatilishi lozim.

To‘p raqami, shuningdek ishlab chiqaruvchi yoki qadoqlovchining nomi va manzili identifikatsiya belgisi bilan almashtirilishi mumkin, agar bunday belgi ilova hujjatlar bilan muvofiqlikni aniqlash imkonini bersa.

## 8 Tahlil va namuna olish usullari

Tahlil usullari va namuna olish tartibi bayon etilgan “Kodeks Alimentarius” Komissiyasining tegishli hujjatlariga qarang.

STANDARTLAR INSTITUTI #QMG7Y5YHE5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## Ilova

Bir nechta chegaraviy qiymatlar va/yoki tahlil usullari ko‘rsatilgan hollarda foydalanuvchilarga tegishli qiymat va tahlil usulini aniq ko‘rsatish qat’iy tavsiya etiladi.

| Parametr / tavsif | Chegaraviy qiymat — Bug‘doy | Chegaraviy qiymat — Qattiq bug‘doy | Tahlil usuli |
|---|---|---|---|
| **1. Sinovlarda minimal massa:** 100 litr hajmdagi don massasining gektolitrga nisbatan kilogrammda ifodalangan qiymati | 68 | 70 | ISO 7971:1986 ga muvofiq aniqlangan donning minimal massasi (kg/hl), tahlil uchun olingan boshlang‘ich na-munadan bir qism asosida aniqlanadi |
| **2. Mayda va singan donlar:** o‘lchami bug‘doy uchun 1,7 × 20 mm va qattiq bug‘doy uchun 1,9 × 20 mm bo‘lgan cho‘zilgan yumaloq teshikli metall elakdan o‘tadigan donlar | 5,0 % dan oshmasligi (massa ulushi bo‘yicha) | 6,0 % dan oshmasligi (massa ulushi bo‘yicha) | ISO 5223:1983 “Don uchun laboratoriya elaklari” |
| **3. Boshqa oziq-ovqat donli ekinlar donlari** (butun yoki aniqlash mumkin bo‘lgan singan donlar) | 2,0 % dan oshmasligi (massa ulushi bo‘yicha) | 3,0 % dan oshmasligi (massa ulushi bo‘yicha) | ISO 7970:1987 (C ilova) |
| **4. Shikastlangan donlar** (shu jumladan don bo‘laklari): namlik, ob-havo sharoitlari, kasalliklar, mog‘orlanish, yuqori harorat, fermentatsiya, unib chiqish yoki boshqa sabablarga ko‘ra ko‘rinadigan shikastlanishlarga ega donlar | 6,0 % dan oshmasligi (massa ulushi bo‘yicha) | 4,0 % dan oshmasligi (massa ulushi bo‘yicha) | ISO 7970:1987 (C ilova) |
| **5. Hasharotlar bilan shikastlangan donlar:** hasharotlar tomonidan qoldirilgan ko‘rinadigan shikastlanishlar yoki teshib o‘tilgan teshiklarga ega donlar | 1,5 % (massa ulushi bo‘yicha) | 2,5 % (massa ulushi bo‘yicha) | Ishlab chiqilishi lozim |

STANDARTLAR INSTITUTI #QMG7Y5YHE5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

**Bibliografik ma’lumotlar**

SMT: 67.060

STANDARTLAR INSTITUTI #QMG7Y5YHE5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI